

9 **Taqirizchilar:**
I. Sirojiddinov – NamMQI «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası professori
R. Ismoilov - NamMTI dotsenti, i.f.n.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



MAKROIQTISODIYOT

FANING ISHCHI O'QUV DASTURI
(SILLABUS)
(2-ta 'lim sirtqi uchun)

Bilim sohalari: 300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot

Ta'lim sohalari: 310 000 - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar

Ta'lim yo'nalishlari: 60310100 - Iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Namangan – 2024

Fan kodi MACROE6	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	Kredit 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 7
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Makroiqtisodiyot	28 (12m/16a)	152	180
2. I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad - milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq barcha jihatlarini, jumladan resurslari, tovarlar, pul bozorlarining amal qilishi, monetar, fiskal va tashqi savdo siyosatini amalga oshirish, davlat iqtisodiy siyosatining bosh maqsadi sifatida makroiqtisodiy barqarorlik va yalpi ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali aholining turmush farovonligi darajasini o'stirish hamda boshqa masalalarni o'rgatishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarga YAIMni ishlab chiqarishning barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandligini, inflyatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qilish va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rgatishni tashkil etish. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: *1-mavzu. "Makroiqtisodiyot" ga kiritish «Makroiqtisodiyot» ning shakllanish tarixi, predmeti va ob'ekti. Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari, "Kene jadvali". Iqtisodiyotga davlat aralashuvining zarurligi. Keynes nazariyasining mohiyati. Makroiqtisodiyot fanning shakllanishi. Asosiy makroiqtisodiy muammolar. Uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo makroiqtisodiyot sub'ektlari sifatida. *2-mavzu. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi. Milliy hisoblar tizimining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichi sifatida YALPI ichki mahsulot (YAIM) ko'rsatkichining mohiyati. Iqtisodiy hudud. YAIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli. YAIMni xarajatlar bo'yicha hisoblash. YAIMni daromadlar bo'yicha hisoblash. Boshlang'ich daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. 3-mavzu. Iqtisodiy tebranishlar. Iqtisodiy davrlarning mohiyati. Iqtisodiy tebranishlarning sabablari: ilmiy texnika taraqqiyoti. Siyosiy hodisalar. Jahon bozorida eergoresurslar narxlarining o'zgarishi. Tabiat hodisalar. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat.			

YALPI xarajatlardagi o'zgarishlar. Iqtisodiy davrlarning bosqichlari va ularning tavsifi. Iqtisodiy tebranishlarning turli tarmoqlarga ta'siri. *4-mavzu. Ishsizlik Ishsizlik tushunchasi. Ish bilan bandlar va ishsizlar. Ishsizlikning neoklassik va keynscha konsepsiyalari. A. Piguning neoklassik konsepsiyasi. Real ish haqi, ish kuchi taklifi va unga talab. Ishsizlikning keynscha konsepsiyasi. Majburiy ishsizlik. Bandlilik multiplikatori. Ishsizlik turlari va ish bilan to'la bandlik. *5-mavzu. Inflyatsiya va inflyatsiyaga qarshi siyosat Inflyatsiya: mohiyati, hisoblanishi va turlari. Inflyatsiya darajasi. Inflyatsiyani miqdoran o'ichash. Narxlarining barqaror o'sishi sharoitida inflyatsiya darajasi. Inflyatsiyaning sabablari, pulning miqdoriy nazariyasi. Pul massasining ko'payishi. Pulning aylinish tezligi ortishi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi. Iqtisodiyotdagi monopoliizm darajasi. Davlat xarajatlari. 6-mavzu. Yalpi talab modeli YALPI talab tushunchasi. AD egri chizig'i. Baho omillari. Foiz stavkasi samarasi. Boylik samarasi va import xaridlari samarasi. AD egri chizig'i traektoriyasi. Pulning miqdoriy nazariyasi. Baholar darajasi va yalpi talab o'rtasidagi teskari bog'liqlik. Bahodan boshqa omillarning yalpi talabga ta'siri. Iste'mol xarajatlardagi, investitsiya xarajatlardagi, davlat xarajatlardagi va sof eksportdagi o'zgarishlar. 7-mavzu. Yalpi taklif modeli YALPI taklif tushunchasi va egri chizig'i. Resurslar bahosining o'zgarishi. Unumdorlikning o'zgarishi. Soliqlarning o'zgarishi. YALPI taklifdagi o'zgarishlar. YALPI taklifning klassik modeli. Nominal kattaliklarning o'zgaruvchanligi. Real kattaliklarning qat'iyligi. AS egri chizig'ining vertikalligi. AS egri chizig'ining ishlab chiqarish omillari va texnologiyalar ta'sirida siljishi. YALPI taklifning keynscha modeli. *8-mavzu. Iste'mol va jamg'arish YALPI talab komponentlari orasida iste'molning o'ri. Iste'mol funksiyasining algebraik va grafik ko'rinishi. "Asosiy psixologik qonun". Avtonom iste'mol. Daromad (shaxsiy tasarrufdagi daromad) va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Jamg'arish funksiyasi va grafigi. Foiz stavkasi va jamg'arish. 9-mavzu. Investitsiya Investitsiya tovarlariga talabning yalpi talabdagi o'ri. Avtonom investitsiyalar. Foiz stavkasi. Kutilayotgan sof foyda normasi. Tobin koeffitsienti. Investitsiyalarga talab funksiyasi. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi boshqa omillar. Akselektor modeli. To'liq investitsiya funksiyasi.

Investitsiyalashga chegaraviy moyillik. Investitsiyalarning beqarorligini belgilovchi omillar. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

***10-mavzu. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli**

Klassik makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi tanqidi. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi. Bozor mexanizmi tomonidan yalpi talab va yalpi taklif muvozanati ta'minlanishining doimiy emasligi. "Investitsiya-jamg'arish" modeli. Investitsiyalash va jamg'arish rejalarining turlicha ekanligi.

***11-mavzu. "Daromadlar - xarajatlar" modeli**

"Daromadlar - xarajatlar" modeli - Keyns xochi. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar. Modelni tuzishdagi asosiy shartlar. Sof eksport funksiyasi. Importga chegaraviy moyillik. Modelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi. Tovar moddiy zahiralarning rejalashtirilmagan o'zgarishlari. Haqiqiy investitsiyalar va rejalashtirilgan investitsiyalar tengligi.

12-mavzu. Davlat byudjeti, soliqlar va davlat qarzi

Davlat byudjetining mohiyati, tarkibi va funksiyalari. Daromadlarni qayta taqsimlash. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish. Fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish. Ijtimoiy siyosatni moliyaviy ta'minlash. Pul mablag'larining markazlashgan fondlarini tashkil etish va foydalalanilishi ustidan nazorat. Davlat byudjeti daromadlari.

***13-mavzu. Byudjet-soliq siyosati**

Byudjet-soliq (fiskal) siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat. YOpiq va ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori. Soliq multiplikatsiyasi mexanizmi. Soliq multiplikatori. Balanslashgan byudjet multiplikatori. Soliqlarni kamaytirilishi samarasi va davlat xarajatlarni oshirishi samarasi.

***14-mavzu. Pul bozorida muvozanat**

Pul tushunchasi va funksiyalari. Pulga talabga monetaracha yondoshuv. Fisher va Kembrij tenglamalari. Pulning aylanish tezligi. Baholar darajasi, real YAIM hajmi va pulga talab. Pulga bo'lgan real talab. "Pul mablag'larining real zahirasi". Pulga talabning keynscha nazariyasi - likvidlikni afzal ko'rish nazariyasi.

***15-mavzu. Pul-kredit siyosati**

Bank tizimining tarkibi. Markaziy bank va tijorat banklarining funksiyalari. Banklarning asosiy operatsiyalari va bozor iqtisodiyotidagi roli. Pul-kredit siyosatining mohiyati, pirovard maqsadlari va oraliq mo'ljallar. Majburiy zahira normasi. Hisob stavkasi (qayta moliyalash stavkasi). Ochiq

bozordagi operatsiyalar.

***16-mavzu. IS-LM modelining shakllanishi va tadbqiqi**

Xiks-Xansen modelining mohiyati.tovarlar va xizmatlar hamda pul bozorlaridagi muvozanatni umumlashtiruvchi model.Modelning tenglamalari va asosiy o'zgaruvchilari. Ekzogena endogen o'zgaruvchilar. Empirik koeffitsientlar. Tovarlarva xizmatlar bozoridagi muvozanat. IS egri chizig'i. IS egri chizig'ining daromadlar o'qiga nisbatan yotiqiligi va tikligi. IS egri chizig'ining tenglamasi.

***17-mavzu. Iqtisodiy o'sish: umumiy tavsifi, neokeynscha model**

Iqtisodiy o'sish tushunchasi, ahamiyati. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i. Ishlab chiqarishning potentsial hajmi dinamikasi. Iqtisodiy o'sishning o'ichanishi, real YAIM va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YAIM dinamikasi. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish. Ekstensiv o'sishning resurs, texnologik va ekologik cheklovlari. Iqtisodiy o'sishning taklif, talab va taqsimot omillari.

***18-mavzu. Iqtisodiyotning neoklassik modellari**

Neoklassiklar tomonidan iqtisodiy o'sishning keynscha nazariyasi tanqidi.Kapitalnin chegaraviy unumdorligi va ishlab chiqarish omillari nisbatining o'zgarishi. Robert Solou modeli, modelda yalpi taklif funksiyasi. Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasi. Mehnat va kapital hajmlari hamda unumdorligi. Modelda yalpi talabning o'sishi. Kapital jamg'arish. Kapitalning chiqib ketishi.

19-mavzu. Xalqaro savdo nazariyalari.

Xalqaro savdoning zarurligi va ko'rinishlari. Jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo ko'lamlarining ortib borishi. A. Smiting mutlaq ustunlik nazariyasi. Mutlaq xarajatlardagi farq. Tashqi savdodan yutuq. D.Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi. Turli tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi nisbat. Ishlab chiqarish xarajatlari va o'rin almashtirish xarajatlari doimiyliigi shartlari.

***20-mavzu. Tashqi savdo siyosati**

Tashqi savdo siyosati: mohiyati va maqsadlari, usullari. Tarif va notarif usullari. Import tariflari. Tariflarning baholar darajasi, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarga ta'siri. Davlat ko'rgan yutuq. Milliy farovonlikning sof yo'qotilishi. Tariflarni yoqlovchi hamda ularga qarshi fikrlar. Yangi paydo bo'lgan tarmoqlarni himoya qilish. Ichki bandlilik va davlat daromadlarining o'sishi.

21-mavzu. To'lov balansi

To'lov balansi tushunchasi, makroiqtisodiy roli, tuzish tamoyillari. Iqtisodiy hudud. Rezident. Ikki bor yozuv. Kredit. Debet. Operatsiyalar bahosi. Tashqi savdo balansi. Joriy operatsiyalar balansi. Tovarlar eksporti va importi.

Omiidan olingan daromadlar, eksportga va importga o'xshash operatsiyalar.

22-mavzu. Valyuta kursi

Valyuta bozori. Valyuta ayirboshlash zarurati. CHet el valyutasiga talab. CHet el valyutasini taklif etish. CHet el valyutasiga talab va uni taklif etishning kichik mamlakat modeli. Valyuta bozorida muvozanatning kichik mamlakat modeli. Valyuta kursi. To'g'ri, bilvosita va teskari kotirovka. Egriluvchan va qayd etilgan valyuta kursi.

Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat. Mandell-Fleming modeli.

Makroiqtisodiyot fanidan ma'ruza mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	Iqtisodiy tebranishlar	2
2	Yalpi talab modeli. Yalpi taklif modeli	2
3	Investitsiya	2
4	Davlat byudjeti, soliqlar va davlat qarzi	2
5	Xalqaro savdo nazariyalari	2
6	To'lov balans. Valyuta kursi	2
JAMI		12

Izoh: Yuqorida yulduzcha ()bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushinishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.*

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Makroiqtisodiyot" ga kirish
2. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar
3. Iqtisodiy tebranishlar.
4. Ishsizlik va uning turlari
5. Inflyatsiya va inflyatsiyaga qarshi siyosat
6. Yalpi talab modeli
7. Yalpi taklif modeli
8. Iste'mol va jang'arish
9. Investitsiya
10. Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli
11. Davlat byudjeti, soliqlar va davlat qarzi
12. Byudjet-soliq siyosati
13. Pul bozorida muvozanat
14. Pul-kredit siyosati
15. IS-LM modelining shakllanishi va tadbiqi
16. Iqtisodiy o'sish: umumiy tavsifi, neokeynscha modeli
17. Iqtisodiy o'sishning neoklassik modeli

18. "Daromadlar - xarajatlar" modeli

19. Xalqaro savdo nazariyalari

20. Tashqi savdo siyosati

21. Valyuta kursi

22. To'lov balans.

23. Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat. Mandell-Fleming modeli

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Makroiqtisodiyot fanidan ma'ruza mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	Iqtisodiy tebranishlar	2
2	Yalpi talab modeli.	2
3	Yalpi taklif modeli	2
4	Investitsiya	2
5	Davlat byudjeti, soliqlar va davlat qarzi	2
6	Xalqaro savdo nazariyalari	2
7	To'lov balans.	2
8	Valyuta kursi	2
JAMI		16

Izoh: Yuqorida yulduzcha ()bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushinishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.*

Nazorat topshiriqlari uchun tavsiya etiladigan mavzular va ularni bajarish uchun qo'yiladigan talablar

1. Milliy hisoblar tizimida yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini hisoblash shartlari va usullari
2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlari yaratishdagi roli.
3. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati
4. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish yo'llari.

Nazorat topshiriqlari talabalarga semestrning boshlanish haftasida professor o'qituvchilar tomonidan taqdim etiladi va talabalar berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatmalar asosida kafedra tomonidan tuzilgan komissiya a'zolariga (tasdiqlangan grafik bo'yicha) yakuniy nazorat topshirish kuniga qadar amalga oshiriladi.

IV. Mustaqil ta'lim topshiriqlari

<p><i>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Makroiqtisodiy modellar. Asosiy makroiqtisodiy modellarning qiyosiy tahlili. 2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili. 3. O'zbekiston Respublikasining YAIM tarkibidagi o'zgarishlar tahlili. 4. O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorining shakllanishi va ishsizlikning o'ziga xos xususiyatlari. 5. Inflyatsiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablari. 6. Inflyatsiyaga qarshi siyosat. 7. Filips egri chizig'i. Modelning zamonaviy talqini. 8. Iste'mol va jamg'arish funksiyalari. 9. Ratsional kutish nazariyasi. 10. Investitsiya funksiyasi va omillari. 11. YAlpi talab-yalpi taklif modeli. 12. YAlpi talab va yalpi taklifni rag'batlantirish yo'llari. 13. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli. 14. Pul bozorida muvozanat. 15. Soliqlarning makroiqtisodiy mohiyati va roli. 16. Davlat byudjeti tarkibi va uni takomillashtirish yo'llari. <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p>Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar</p> <p>Fan bo'yicha kurs ishlari o'quv rejaida nazarda tutilmagan</p>	<p>3.</p> <p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>"Makroiqtisodiyot" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - zamonaviy bozor iqtisodiyotining ishlashi va rivojlanishining nazariy asoslari; talab va taklif modeli asosida taqchil resurslarning taqsimlanish mexanizmi; raqobatlashgan va raqobatlashmagan bozorlarning asosiy xususiyatlari va firmalarning ushbu bozorlardagi harakat qilish qoidalari; ishlab chiqarish jarayoni va ishlab chiqarish omillaridan optimal foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlari turlari, tavsakkalchilik va uni oldini olish hamda pasaytirish yo'llari, bozor sharoitida narxlarning qanday shakllanishi; davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashish yo'nalishlari va ularning oqibatlari; makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyati va ularni hisoblash shartlari; byudjet-soliq va pul - kredit siyosatining maqsadlari, vositalari, ko'rinishlari; mamlakat to'lov balansining tuzilishi, makroiqtisodiy ahamiyati va uni tartibga solish usullari; valyuta kursining mohiyati, makroiqtisodiy ahamiyati, uni belgilovchi omillar va barqarorligini ta'minlash shartlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; - talaba bozordagi talab va taklif to'g'risidagi statistik ma'lumotlar asosida bozorni tahlil qilish va xulosalar chiqarishni; statistik ma'lumotlar asosida talab va taklif funksiyalarini tuzishni, talab va taklifning elastiklik
<p>koefitsientlarini xisoblash va ular asosida bozordagi holatni tahlil va prognoz qilishni, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda makroiqtisodiy modellarni qo'llashni; makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishni; makroiqtisodiy siyosatning ijobiy va salbiy oqibatlariga baho berishni; makroiqtisodiy siyosatning natijalarini prognoz qilishni bilishi va ularidan foydalana olishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - taqchil resurslarni taqsimlanish; talab va taklifni tahlil qilish; raqobatlashgan va raqobatlashmagan bozorlar to'g'risida ma'lumotlar to'plash; bozor sharoitida narxning shakllanishi mexanizmi aniqlash; har xil bozor tuzilmalarida firmalarning harakat qilishini belgilash; bozorning ishlash samaradorligi va unga ta'sir qiltuvchi omillar tahlil qilish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash; ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi qanday amal qilishini izohlab berish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - axoli daromadlari va ularni taqsimlanishini Djin koefitsienti bo'yicha baholash, raqobatlashgan va raqobatlashmagan bozorda firmalar harakatini tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish; davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashuvi oqibatlarini tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish malakalariga ega bo'lishi kerak. 	<p>4.</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni echish; • so'rov o'tkazish.
	<p>5.</p> <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fandan talabalarni bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustidagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test nazoratini topshirish.</p> <p>Diqqat! Topshiriqlar va nazorat ishlari dedlayn (qat'iy belgilangan vaqt)</p>

tarzida shakllantiriladi va talabalar tomonidan bejarish muddatida platformaga joylashtiriladi. Muddat yakunlanganidan so'ng javoblar qabul qilinmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.

Talabalar bilimini baholash mezonlari

Moliyaviy menajment fanidan talabalarni baholashda, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga qatnashishi va unda olgan baholarini inobatga olinadi.

1. Oraliq nazorati ma'ruza, amaliy mashg'ulotlaridagi mavzularni qamrab oladi. Talabaning nazorat topshiriqlarini topshirish jarayonida to'plagan bali oraliq nazorat bali hisoblanadi.

$$OB = N \cdot T(1,2,3) + A \cdot M + MT(3\text{tadan})/3$$

Bu yerda: OB- oraliq baholash; N.T- nazorat topshiriqlari;

A.M- amaliy mashg'ulotlar; MT- mustaqil ta'lim topshiriqlari.

Oraliq baholash bandlarining har biri kamida 60%=3 baxo holatda o'zlashtirilishi lozim. Agar nazorat ishini yoki biror bandning o'zlashtirilishi 60% dan kam bo'lsa ya'ni 3 baxodan kam bo'lsa, o'zlashtirilmagan hisoblanadi va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

$$OB \geq 60\%$$

Yakuniy nazorat tarkibi: auditoriya mavzularidan (50%) va mustaqil ta'lim mavzularidan (50%) yakuniy nazorat savollari tuziladi.

Yakuniy nazoratda kamida 60% ni o'zlashtirilishi shart. Agar 60%=3 dan kam bo'lsa yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi.

$$YaN \geq 60\% = 3$$

Fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlar 2-5 baho oraliq'da baholanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishdan o'rtaicha 3,4,5 baho olgan talaba oraliq nazorat (ON)dan o'tgan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat 2-5 baho oraliq'da baholanadi. Yakuniy nazorat turi bo'yicha 3,4,5 baho olgan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. Aks holda qoniqsiz baho (2 baho) olgan talaba akademik qarzdor sifatida qayta topshirishga qoldiriladi.

VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Maxmudov N., Hakimov H. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma - T.: TDIU, 2019. -181 bet.
2. Edward Shapiro. Macroeconomic analysis. Fifth edition. Oxford.

Copyright 2015

3. Maxmudov N.M., Asqarova M.T., Umarov L.Yu. Makroiqtisodiyot. Darslik. T.: "Fan vatehnologiyalar", 2014-338 b.
4. L.M. Tashpulatova. Makroekonomicheskiy analiz. Uchebnoe posobie. T.: UMED, 2006, 280 b.
5. Xodiyev B.Yu., Shodiyev T.Sh., Berkinov V.V. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot, 2018, 178 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. I. N.Maxmudov, X.Hakimov. "Makroiqtisodiy tahlil" fanidan O'quv-uslubiy majmua.-Toshkent: Iqtisodiyot.-2018 y. - 308 bet.
7. T.Z.Teshabayev, Z.M.Otaqo'ziyeva, Makroiqtisodiyot. Ma'ruzalar matni. T.: TATU, 2015, 480 b.
8. T.U.Bobokulov, N.G.Karimov, U.A.Abdullayev. Xalqaro vayluta-kredit munosabatlari. Ma'ruzalar matni. T.: TMI, 2015,244 b.
9. R.T.Shomurodov. Monetar siyosat. Ma'ruzalar matni. T.: TMI, 2015, 151 b
10. Xakimov.B.J., Xolmirezayev.U.A. o'quv qo'llanma. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. -T.: Moliya, 2013, -240 b.

Internet saytlari

11. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
12. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
13. www.mmeconomy.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti.
14. https://www.imv.uz - O'zbekistan Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti.
15. www.stat.uz - O'zbekistan Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.
16. www.soliq.uz - O'zbekistan Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.
17. www.cbu.uz - O'zbekistan Respublikasi Markaziy banki sayti.
18. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
19. www.sciencedirect.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
20. www.wordbank.org - Jahon banki sayti.
21. www.scopus.com- Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
22. www.ebrd.org - Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki sayti.

7 Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

8 Fan/modul' uchun ma'sullar:

N.Nasirova – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi